

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**O'ZBEKISTON QAHRAMONI, XALQ SHOIRI ABDULLA ORIPOV
TAVALLUDINING 80 YILLIGIGA BAG'ISHLANADI**

**ABDULLA ORIPOV
FENOMENI VA O'ZBEK SHE'RIYATI
TARAQQIYOTI**

(Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari)

2021-yil 20 – 21-may

Qarshi – 2021

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-dekabrdagi PQ-4906-son Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinining 2021-yil 78-f sonli farmoyishiga asosan O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi munosabati bilan Qarshi davlat universitetida 2021-yil 14-may kuni bo‘lib o‘tadigan “Abdulla Oripov fenomeni va o‘zbek she’riyati taraqqiyoti” mavzuidagi Respublika ilmiy konferensiyasiga taqdim etilgan maqola va tezislardidan iborat.

Konferensiya materiallarida Abdulla Oripov ijodining o‘zbek she’riyati taraqqiyotiga ta’siri, shoir ijodiy merosining badiiy-estetik tafakkur takomilidagi o‘rnii, asarlarining til xususiyatlari, folklor bilan aloqalari hamda o‘zga tillarga tarjimalari masalalari qamrab olingan.

To‘plam soha mutaxassislari, filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba va magistrlar hamda o‘zbek tili va adabiyot o‘qituvchilari uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

KONFERENSIYA TASHKILIY QO‘MITASINING TARKIBI:

D.X. Nabiiev
A.P. Erkayev
A.E. Xolmurodov
N.S. Xolmirzayev
E.X. Ibragimov
F.A. Mirbabayev
A.J. Shodiyev
R.N. Jumayev
B.S. Karimov
O‘. Haydar
U.S. Oripov
Sh.L. Karomova

TAHRIR HAY’ATI:

D.To‘rayev,	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
B.Yo‘ldoshev,	<i>filologiya fanlari doktori</i>
G.Imomova,	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
Sh.Qahhorova,	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
D.Shodmonova,	<i>filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
G.Ravshanova,	<i>filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
O.Avaznazarov,	<i>filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
Sh.Akramov,	<i>o‘qituvchi</i>
M.Tilovova,	<i>o‘qituvchi</i>

Mas’ul muharrir:

N.Shodmonov,
filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

N.Ochilov,*filologiya fanlari doktori*
S.Mo‘minova,*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

ATOQLI SHOIR, FIDOYI JAMOAT ARBOBIGA EHTIROM

Bugun butun mamlakatimiz ma’naviy olamida bo‘lgani singari vohamiz, shuningdek, universitetimiz miqyosida ham katta tarixiy voqelik, katta adabiyot bayrami desak, xato bo‘lmaydi. Buning sababi O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston Xalq shoiri, adabiyotimizning zabardast karvonboshilaridan biri bo‘lgan Abdulla Oripov tavalludiga 80 yil to‘ldi.

Ko‘ngilda kechadigan ilk iftixor tuyg‘usi shundan iboratki, sevimli shoirimizning 80 yillik to‘yini Mustaqilligimizning shonli 30 yilligi sanasi arafasida kutib turibmiz. Bu bejizga emas. Chunki Abdulla Oripov adabiyot maydoniga, ijod chamaniga, she’riyat bo‘stoniga o‘zining ilk she’rlari bilan Vatan kuychisi sifatida kirib keldi. Xalqimizning asriy orzusi – Mustaqillik esa, shoir ijodida o‘ziga xos sahifa ochdi. Ta’bir joiz bo‘lsa, Abdulla Oripov har tong bizga sarxushlik nasimini baxsh etadigan, nafaqat yurtimizda, balki xorijda o‘tadigan har bir tantana-marosimda bayrog‘imiz ko‘tarilishi barobarida yangrab, millatimiz iftixorini namoyon etadigan Davlatimiz Madhiyasining muallifi sifatida istiqlol she’riyatini boshlab berdi.

Abdulla Oripov deganda beixtiyor kishi ko‘z o‘ngida bugungi o‘zbek she’riyatining eng zabardast va mashhur vakili, yaratgan har bir katta-kichik asari bilan o‘quvchi ruhiyatiga kirib bora oladigan buyuk shoir keladi.

Men Abdulla Oripov she’riyati bilan juda yoshligimdan tanishman. O‘quvchilik va talabalik yillarimda shoirning “Onamga xat”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?”, “Birinchi muhabbatim” kabi she’rlarini o‘qimagan, yod olmagan talaba topilmas edi.

Shoirning 1999-2002-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati, 2005-2009-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senating a’zosi sifatidagi faoliyati, xalq bilan muloqotlari uning salohiyati nihoyatda baland jamoat arbobi, siyosatchilik fazilatini ham namoyon etdi. U kishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni ko‘rib quvonar, g‘ururlanar, ulkan ijobiy o‘zgarishlarga o‘z munosabatini bildirar edi.

Abdulla Oripovning poetik olami nihoyatda keng, serqirra va rang-barangdir. Bu olamning o‘z osmoni, oy, quyoshi, lojuvard ko‘k toqida nur sochib turadigan yulduzları, o‘z maysalari va mavjili buloqlari, tashvish va quvonchlari bor. Bu she’riyat olamida, go‘zallik va nafosat dunyosida o‘zgacha ruh – orifona ruh hukmronlik qiladi, nazmiy satrlar vositasida dunyoviy voqeа-hodisaga so‘z muhri bosiladi. Bir so‘z bilan aytganda, she’riyatimizning bugungi qiyofasini, mavqeyi va maqomini Abdulla Oripov ijodisiz tasavvur qilish mumkin emas. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatining eng muhim jihatlari, shakllangan an’analari Abdulla Oripov lirikasida ilk bor o‘z ifodasini topadi.

Shoir ijodini tadqiq qilish uning ilk she’riy namunalari chop etilgan 60-yillardan boshlangan va hozirda ham davom etmoqda. Shoir asarlarini xoh nazm, xoh nasr, xoh dramaturgiya janrlarida bo‘lsin, izchil va atroflicha tadqiq qilish ilmiy-nazariy, balki amaliy qimmatga ham ega ish deb o‘ylaymiz. Yirik adabiyotshunos olimlar, keng qamrovli tadqiqotchilar qatorida bizning universitetimiz professor-o‘qituvchilari, talaba-yoshlari ham shoir ijodini o‘rganish va tadqiq etish jabhasida ilmiy izlanishlarni olib bormoqdalarki, bu, albatta, xayrli va ezgu ish, deb baholanmog‘i lozim. Hozirda professor-o‘qituvchilarimiz tomonidan adabiyotshunoslik bo‘yicha 2 ta (bir nomzodlik, bir PhD) va tilshunoslik bo‘yicha 2 ta (PhD) dissertatsiya himoya qilingan, yana bir PhD dissertatsiyasi himoyasi yaqinlashmoqda.

Abdulla Oripov she’riyatining xalqchil va hayotiyligi shunda ko‘rinadiki, shoir nima haqida va qaysi mavzuda yozmasin, misralar ortida bezovta qalbning insonni hushyor tortirish sezgisi aks etib turadi. Shunga ko‘ra, muallifning voqeа-hodisalarga munosabati hamisha izchil va aniq. Kurashchanlik, har qanday sharoitda hamadolat va ishonchga bo‘lgan so‘nmas muhabbat shoir she’riyatining qat’iyati va shukuhini belgilaydi.

Aytish mumkinki, asrlar davomida orzu qilingan olamshumul ishlarni amalga oshirayotgan bunyodkor xalqimizning bugungi farovon hayoti va kelajagi buyuk bo‘lgan ertangi kunini nazmiy satrlarda kuylashda biron bir shoir hali Abdulla Oripovga tenglasha olgani yo‘q. Biz uchun yana bir muhim jihat shuki, mana yarim asrdan oshiqliki, Abdulla Oripov she’rlari, shoir qalamiga mansub boshqa janrdagi asarlari yosh avlodni barkamol inson, yangi O‘zbekistonning ma’naviy jihatdan yetuk, fidoyi farzandlari sifatida shakllanishi uchun xizmat kelib kelmoqda.

Abdulla Oripov – jahon tan olgan, e’tirof etgan o‘zbek shoiri, millatimiz faxri. Ayni paytda, dunyodagi juda ko‘plab dorilfunun va ma’rifiy maskanlarning faxriy a’zosi edi. Bu borada shoirning Qarshi davlat universiteti faxriy professori sifatida jamoamiz bilan bir necha yillar ijodiy – ilmiy hamkorlik qilib kelganini eslash ham bizga farah baxsh etadi.

Universitetimizda muntazam tarzda tashkil etib kelingan “Abdulla Oripov saboqlari”da nafaqat shoirimizning o‘zi, ayni paytda u bilan birga uning hamkasblari, shogirdlari, yurtimizdagi nomdor shoir, yozuvchi, ma’naviyat va ma’rifat xodimlarining ishtiroki talaba-yoshlarimizda nafaqat badiiy-estetik dunyoqarashni rivojlantirishga, balki ularning ijodiy, ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy qobiliyat va iste’dodlarining kamol topishiga xizmat qilganini e’tirof etish lozim.

Bugun ardoqli shoirimiz tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlab universitetimizda respublika ilmiy konferensiyasi o‘tkazilmoqda. Konferensiyada mamlakatimizning yirik olimlari bilan birga Rossiya va Turkiyadan ham ilmiy ma’ruzachilar ishtirok etayotgani bizga mammuniyat baxsh etadi. Shuningdek, ilmiy anjumanda ishtirok etayotgan tadqiqotchilar orasida yoshlar sonining ortib borayotgani kelajakka katta umid tug‘diradi. Men bugungi “Abdulla Oripov fenomeni va o‘zbek she’riyati taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi mehmonlari va ishtirokchilarini qadrdon universitetimizda qutlab, uning ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

D.H. Nabihev,
*Qarshi davlat universiteti rektori,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

Ammo ota hovlisi (yoki ota uyi, xonadoni) esa o‘zgarmaydi. Voqealar takrorlanib tutuvchi turg‘un makonligicha qolaveradi. Bu she’rdagi zamon kategoriyasi ham xuddi shunday. Yonlamasiga (gorizontal) yoki yuqoriga (vertikal) qarab harakatlanmaydi, balki serkulyativ trayektoriya bo‘ylab aylanib turadi. Hatto bobolar, otalarning o‘limi ham zamonning bunday harakatini o‘zgartira olmaydi. Avlodlar hayoti negizida takrorlanishda davom etaveradi. Takrorlanuvchi tashriflar kutishdan keyingi qaytish, bir dasturxon atrofida jamlanishda namoyon bo‘ladi. Ota-onas kutgani kabi bolalar ham uydan chiqib ketadilar, qaytib keladilar. Bu jarayon uzlusiz va o‘zgarmas. Ketish muddati ma’lum vaqtga cho‘zilishi, ota makondan uzoqlashuvning ro‘y berishi ham ushbu azaliy qonuniyatga putur yetkaza olmaydi. Toki yer yuzida yagona oila qolar ekan, takrorlanaveradi.

E) *idilliyyaviy xulosa*. She’rning umummilliy, umumbashariy ko‘lami, darajasi va ahamiyati undagi idilliyyaviy xulosada o‘z aksini topgan. Bu xulosa Yaratgan nizoming buyukligi, abadiyligi, bashariyatga oila bo‘lib yashashni ixtiyor etganini eslatish, ta’kidlash, targ‘ib etishda namoyon bo‘ladi. Mana shunday buyuk nizom asosida yashab kelayotgan oila fenomenining mukammal bir namunasida shakllangan shoir hech qanday sun’iy zo‘riqishlarsiz, tabiiy ravishda “Oila” she’rini o‘z o‘quvchilariga taqdim etadiki, bu muhim jihat she’r abadiyati va badiiyatini ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

1. Badiiy adabiyot aynan idilliyyaviy talqin vositasida oila, tabiat, insonlararo munosabat-larning asl ildizlariga tomon intiladi.
2. Idilliyyaviy asar markazida asl o‘zligi, milliyligi, sof tabiatni izlayotgan, ajdodlar an’anasini saqlash yo‘lida iztirob chekayotgan odamparvar obrazni turadi.
3. Sof idilliyyaviy talqinni namoyon etuvchi oila, ota-onas, tug‘ishganlar, muhabbat, tug‘ilish, o‘lim, mehnat, yeyish-ichishga oid tasvirlar, shular negizida keladigan qishloq, shahar, qadrdon uy, tog‘, dala, yaylov, dengiz, daryo, anhor, ariq singari badiiy makonlar faqatgina idilliyyaviy tafakkur, idilliyyaviy falsafa, idilliyyaviy xulosa bilangina estetik mazmun-mohiyat kasb etadi.
4. Milliy adabiyotlarda idillik asarlarning mavjudligi ayni millat vakillarining asliyatdan yiroqlashmaganidan dalolat beradi. Shoir Abdulla Orifning “Oila” she’ri esa o‘zbek xalqi milliy o‘zligini mukammal darajada saqlab kelayotganini ko‘rsatuvchi ulkan badiiy dalildir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Oripov A. Saylanma. – T.: Sharq, 1996.
2. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar. Rus tilidan U.Jo‘raqulov tarjimasi. – T.: Akademnashr, 2015.

ABDULLA ORIPOVNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI (Esselari asosida)

Sh.N. Axmedova,
Filologiya fanlari doktori,
BuxDU professori

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov asarlari adabiyot rivojida qanchalik katta o‘rin tutsa, ularning adabiy-tanqidiy maqola, adabiy o‘ylari, suhbatlari, qaydlari ham adabiyotshunoslik kamolida shunchalik muhim o‘rin tutadi. Bu esa uning adabiy jarayonga befarq emasligini, shoir qalbining doimo uyg‘oqligini ko‘rsatadi.

Adabiyotshunoslik ilmining bugungi taraqqiyoti, estetik tafakkur kamolotini essesiz tasavvur qilish qiyin. Adabiy esse, asosan, ijodkorning hayot hodisalariga oid kuzatishlari mag‘zini chaqishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Yozuvchi yoki shoirning adabiy o‘ylari san’atkor ijodiy laboratoriyasiga yo‘l ko‘rsatishi, adabiy jarayon, adabiyot haqidagi umumlashma kuzatishlari, ulardan ilmiy-nazariy xulosa chiqarishi jihatidan adabiy tanqid rivojida katta ahamiyatga ega. Bunday asarlarda o‘ylar, adabiy-tanqidiy qarash va adabiy kuzatishlar qorishiq holda keladi. Shuning uchun ko‘pchilik ijodkorlar shu siradagi asarlarini adabiy o‘ylar shaklida kitobxonlarga

taqdim etganlari ko‘rinadi. Zotan, yozuvchi ushbu yo‘nalishdagi asarda tanqidchi va tadqiqotchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan, ayniqsa, Mirtemir, P. Qodirov, A. Muxtor, Sh. Xolmirzayev, Abdulla Oripov, E. Vohidov, O‘. Hoshimov kabi yozuvchilar esselarini alohida ta‘kidlab o‘tish mumkin. Zotan, esse janrining asosiy xususiyatlardan biri - muallif hissiy tafakkurining teran namoyon bo‘lishidir.

Abdulla Oripovning “Yozuvchi va davr” rukni ostida chop etilgan “Ehtiyoj farzandi” asarida adabiyotshunoslik, estetika, falsafa masalalari adabiyot va san’at, madaniyat rivojlanishining asosiy tamoyillari, ustoz ijodkorlarning betakror saboqlari erkin tahlil va talqin qilinadi. Eng muhimi, adabiyotga mehr va ulkan hurmat ijodkorning har bir satrida yorqin namoyon bo‘lib turadi.”Adabiyot har qachon jamiyatni qayta qurishga tayyorlagan, jamoatchilik fikrini uyg‘otgan. Insonni, uning ruhini, e’tiqodini mustahkamlash g‘oyatda zarur”[Oripov A. 1988.42].

Esseda ijod etuvchi san’atkorning adabiy o‘ylari adabiylik va emotSIONALLIK bilan chatishib ketgan fikr-mulohazalarning ko‘rkam sintezini tashkil etadi. Shuning uchun essega xos xususiyatni ko‘pincha yozuvchilar to‘g‘ri belgilab bergenlar. Asqad Muxtor esseni “erkinlik” janri deb atagan. Sh.Xolmirzayev: “Bu janr hikoya, ocherk janridan juda yosh bo‘lishiga qaramay, yozuvchiga behad keng erkinliklar beradi, ya’ni esse yozguvchi adib tasvirlayotgan yoxud bayon etayotgan voqeа-hodisaga-yana o‘sha gap: inson qismatining ma’lum davri bo‘lagiga nisbatan o‘z munosabatini (ocherkdagи kabi) ochiq-oshkora bildirib turishi barobarida (bu yo‘rug‘da) o‘z ko‘nglida tug‘ilgan qandaydir his-hayajonini ham, hatto shaxsiy mulohazalarini ham bemalol yozish imkoniga egadir. Demak, aytish mumkinki, esse janri ocherk bilan hikoya o‘rtasidan o‘sib chiqqan janr-tasvir usulidirki, u maqola – maqola ilmiy bo‘ladimi, badiyyroq bo‘ladimi, baribir, – maqolaga xos unsurlardan ham foydalanadi, to‘g‘rirog‘i, ularni-da, o‘ziniki qilib oladi”, – deb yozgan edi. [Xolmirzayev. 2003. 16]. Haqiqatan ham, yozuvchi essesida, eng avvalo, uning “men”i aks etadi. Shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, Abdulla Oripov ijtimoiy, adabiy jarayon haqida fikr yuritadimi, yoki ijod, she‘r tabiatи borasida so‘zlaydimi yoxud yosh qalamkashlar izlanishlarida chaqnagan umid uchqunlari haqida gapiradimi, ularda shoirning yoniq qalbi, xolis munosabati yaqqol aks etadi. Uning ustozlari haqida katta hurmat va muhabbat bilan yozganlari bugungi kun o‘quvchisi uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qila oladi. Shoir Oybek, M.Shayxzoda, A.Qahhor, G‘afur G‘ulom, Mirtemir kabi buyuk ustozlariga nisbatan qalbida cheksiz mehr tuyadi va uni kitobxon bilan o‘rtoqlashadi. Oybek haqida: ” Muhtaram zotlar haqida gapirish hamma zamondarda ham faxr hisoblangan...

Ustozimizga bo‘lgan cheksiz mehrni adabiyotimizning har bir avlodida payqashimiz mumkin” (69-bet) yoki Mirtemirning ustoz Oybek eshigi yonidan o‘tayotganda qo‘llari ko‘ksida, haydovchidan xuddi shu joyda tezlikni susaytirishini iltimos qilishi haqidagi xotiralar – bularning barchasi bugunimiz va kelajagimiz uchun ibratdir. Abdulla Oripov “Ustoz Oybekning nomi xalqimiz badiyy tafakkuri osmonida abadiy harakat qiluvchi yoritqichlar safiga” kirishidan faxrlanadi.

A.Qahhor haqida: “Ustoz Abdulla Qahhor bizning xotiramizda adabiyotning pokligi va butunligi uchun kurashgan, o‘z talabiga o‘zi ham qat’iy amal qilgan siymo sifatida qoldi.

Oilada, mahalla-kuyda ayrim mo‘tabar odamlarning o‘rnı bo‘lakcha bo‘lgani singari Abdulla Qahhorning jozibasi ham biz yoshlar uchun o‘shandoq – bo‘lakcha edi”, – deb yozadi (73-bet).

“Mirtemir domla...

Bu nomni eshitganda beixtiyor qalbimizga bir iliqlik yuguradi. Bu iliqlik, eng avvalo, kamtar va jozibali bir insonga hurmatimizdandir. Bu iliqlik xalqimizni qirq besh yildan buyon xushnud etib kelayotgan kattakon bir shoirga muhabbatimizdandir. Ha, domla Mirtemir haqiqatan ham, ulkan inson va katta san’atkor...”(76-bet).

Ko‘ramizki, shoir o‘zi ko‘rgan, saboqlarini olgan ustozlari haqida samimiyligi, iliqlik yuguradi. Bundan tashqari, qardosh xalqlar adabiyoti vakillari haqida gapirganda ham doimo adabiyotning vazifasi, hayotdagi o‘rnidan kelib chiqib, ular ijodiga baho beradi. Dante, Pushkin, M.Sholoxov, To‘qay, Q.Quliyev kabi ijodkorlar haqidagi maqolalari ham teranligi, samimiyligi, ijodkorga bo‘lgan hurmatidan insho etilganini ko‘ramiz.

Esseist yaxshi hikoyanavis, chuqur mushohada yurituvchi faylasuf, chin yurakdan dardlashadigan suhbatdosh, axloq o‘qituvchisi bo‘lishi, umuman, shart emas va ayni zamonda bu

qobiliyatlarning barchasi uning uchun yetarli emas. Tafakkur kuchi bilan u faylasuf, tasavvurining yorqinligi bilan rassom va yozuvchiga, iqroring ochiqligi bilan iqrornoma va kundalik muallifiga o‘xshab ketadi. Esseist uchun, eng muhimi, bu qobiliyatlar barchasining tabiiy aloqasi, o‘z shaxsiy tajribasida bilimning turli qirralarini markazlashtirishdir [Epshteyn M.1988. 29]. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, Abdulla Oripov hayotga faylasuf ko‘zi bilan qarab baho beradi, rassomlardek tabiatni, fasllarning rasmini chizadi (bahor toshqinlari, saratonning zerikarli, jumjit kunlari, kuzning izg‘irinli oqshomlari, qishning olis kechlari, qop-qora osmonda charaq-lagan sonsiz yulduzlar...18-bet) xotiralar dunyosida turib, ustozlari qiyofasiga chizgilar yaratadi, ba’zan ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarni dunyosida turib, hayotni publisist ko‘zi bilan kuzatadi, ba’zan esa davrning o‘tkinchi g‘oyalari ta’siridan chiqib ketolmaganini ham ko‘ramiz.

Abdulla Oripov o‘z asarida muayyan adabiy-badiiy hodisalar haqidagi o‘z taassurot va mulohazalariga (“Adabiyot va san’atdagi go‘zallik hayotni xalqning tub manfaatlarini ifodalovchi ideallar bilan muvofiq ravishda haqqoniy aks ettirishdan iboratdir. Insonlardagi ma’naviy boylikni axloqiy poklikni rivojlantirishga xizmat qilish – go‘zallikning oliy vazifasi hisoblanadi”. 104-bet), san’atkor tarjimayi holi va badiiy asar qahramonlarining real hayotiga doir qiziq voqealar tasviri (“Pushkin saboqlari”), tabiatning dilbar manzaralari, turli shahar va qishloqlar badiiy peyzaji (Italiya haqidagi xotiralar), tahlil etilayotgan mavzu va hodisalar haqida kitobxon bilan bevosita erkin (“Samimiylidkan ortiq fazilat yo‘q”, “Onalar tinch – olam tinch” kabi suhbatlar) muloqot qilishga ham keng o‘rin beradi.

Shoirning ba’zi tanqidiy mulohazalarini o‘qir ekansiz, ular adabiyotga kirib kelayotgan bugungi yosh ijodkorlar uchun dasturulamal vazifasini o‘tay olishiga ishonasiz: “Men she’rxon sifatida shoirdan bir narsani talab qilaman: mazmunda – hayotiylik, shaklda – san’at bo‘lsin...bu mening istagim, armonim.

Yosh shoirlar oq she’r yozadimi, “ko‘k” she’r yozadimi, beshlik yozadimi, otilik yozadimi – ixtiyor o‘zida. Faqat uquvsizlikni uslub deb bilmasinlar... (119-bet). “Men yoshlarimizni kutayotgan hayot kurashlari, bo‘ronlar oldida dovdirab qolmasliklarini istardim” 131-bet). Adabiyot bir joydadepsinib turmaydi, u siljiydi, yangi shakllarga, yangi yo‘slnlarga ehtiyoj sezadi. Bir xil ohangda, bir maromda yozish zeriktiradi (142-bet).

“Ayl hamisha qo‘l yetmas orzu, yuksak go‘zallik manbai nur, olajanoblikning ka’basi bo‘lib qolishini tilayman. Shoiralarimiz qo‘pol so‘zlardan o‘zlarini ehtiyyot qilsinlar. Ular eng go‘zal insonlardir va dunyoga til bilan aytib bo‘lmas tuyg‘ular bilan boqsinlar, hamda shu tuyg‘ularni eng munosib, iffatlik so‘zlar bilan ifoda qilsinlar” (158-bet).

Yoki shoirning qo‘sinqchilik haqidagi tanqidiy mulohazalari bugun ham eskirmagan: “G‘arib qo‘sinqilar! Ularni tinglovchilarga mening dil-dildan rahmim keladi. Chunki bunday qo‘sinqilar o‘zining chuchmal ohangi, poyma-poy so‘zları bilan asablarni beomon arralaydi, millionlab tinglovchilarni bir nafas bo‘lsa ham g‘oyat noqulay ahvolga solib qo‘yadi” (177-bet). XX asrning 80 yillarda yozilgan bu mulohazalar xuddi bugungi qo‘sinqchiligidan haqida aytigandek.

“Ehtiyoj farzandi” asarida inson va jamiyatning ma’naviy tafakkurini shakllantiruvchi erkin mulohazalar ifodalanadi. Shuning uchun essening barcha ichki ko‘rinishlarida Abdulla Oripov-ijodkor shaxsi, uning tafakkur va badiiy olami, ijodiy konsepsiysi, dunyoqarashi bosh qahramon sifatida gavdalanadi. Esseni o‘qir ekan, kitobxon shoirga yanada yaqin bo‘ladi, uning ijodkorning jamiyatdagi o‘rni xususidagi qarashlarini yaqinroq biladi, esse yutug‘i ham mana shunda.

Xulosa qilib aytganda, adabiy hayotga, jarayonga faol aralashishni o‘zining ma’naviy ehtiyoji deb bilgan Abdulla Oripovning nafaqat badiiy ijodi, balki adabiy-tanqidiy qarashlari, portretga chizgilari, publisistik chiqishlari, xotiralar, suhbatlari jam bo‘lgan adabiy o‘ylari – esselari ham kitobxonda Adabiyotga muhabbat uyg‘otishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Oripov A. Ehtiyoj farzandi. Toshkent. “Yosh gvardiya”, 1988. 42-bet.
2. Xolmirzayev Sh. Esse-erkin janr // O‘zAS, 2003, 18.04. – № 16.
3. Эпштейн М. Законы свободного жанра // Вопросы литературы. 1987, – № 1. – С.29-139.

MUNDARIJA:

№	Muallif F.I.	Maqola nomi	Bet
1.	D.H.Nabiyev.	Atoqli shoir, fidoyi jamoat arbobiga ehtirom	3
2.	A.Erkayev.	Abdulla Oripov ijodi evolutsiyasi va lirik qahramon kayfiyati munosabati	5
3.	N. Jabborov.	Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy tafakkur va badiiy tasvir uyg'unligi	12
4.	M. Jo'rayev,	Abdulla Oripov she'riyatida mifopoetik obrazlar talqini	19
5.	I. G'aniyev.	Ichdan vayron qilish san'ati yoxud "Ranjkom" xususida	23
6.	H. Umurov.	Abdulla Oripov adabiy – estetik qarashlarida she'r tahlili	28
7.	D. To'rayev.	Shoirning dramaturglik mahorati	34
8.	U. Hamdam.	Abdulla Oripov she'riyatida ijtimoiy dard tarannumi	35
9.	N. Shodmonov.	Millat qo'shig'inining matniy tadqiqi	39
10.	B. Yo'ldoshev.	Abdulla Oripovning adabiy – estetik qarashlari xususida	44
11.	U. Jo'raqulov.	Abdulla Orif she'riyatida oila idilliysi	46
12.	Sh. Ahmedova.	Abdulla Oripovning adabiy-taqnidiy qarashlari (esselari asosida)	50
13.	N. Afoqova.	Abdulla Oripov she'riyatida aruz	53
14.	D. Quvvatova, Sh. Sharipova	Lesya Ukrainkaning "Mag'oralarda" dostoni tarjimasi	57
15.	Sh. Hasanov.	Badiiy ijod – adabiy saboq sifatida	59
16.	M. Tojiboyeva, G. Bektasheva.	Abdulla Oripov va Begali Qosimov	62
17.	S. Mo'min.	"Madhiyamiz – madhimiz" she'rining yaratilishi	64
18.	Sh. Tojiboyev, R. Jabborov.	Abdulla Oripovning "Ketmoqdaman" va "Munojotni tinglab" she'rlarining tojik tiliga tarjimalari haqida ayrim mulohazalar	67
19.	G.Imomova.	El dardini ko'ylagan shoir	70
20.	D.Boboxonova, D.Matnazarova.	Abdulla Oripov lirikasida emotsional-ekspressivlikning leksik- semantik usul bilan ifodalanishi	72
21.	S.Mo'minova.	Abdulla Oripov she'riyatida ironiya	74
22.	Sh.Qahhorova, Radhid Jumayev.	Abdulla Oripovning hajviy obraz yaratish mahorati	77
23.	S.Jumayeva.	"Jannatga yo'l" dramatik dostonida milliy qadriyatlar talqini	80
24.	Sh.Karomova.	Ijodkor shaxsi va davr ruhi.	82
25.	A. Baxriyev.	Abdulla Oripov poetikasida musiqiylik	85
26.	O.Norov.	Millatning ma'naviy qiyofasi talqini	87
27.	N.Yo'ldosheva, M.Imomova	Abdulla Oripov she'rlarida shevaga xos so'zlarning qo'llanishi	90
28.	N.Sultonova.	Abdulla Oripov she'riyatida fasllar talqini	93
29.	G.Ravshanova.	Hajvning ijtimoiy ahamiyati	95
30.	R.Fayzullayeva.	Abdulla Oripov she'riyatida ayolni ulug'lash talqinlari	99
31.	O.Avaznazarov.	"Yo'l" obrazi tadqiqiga doir ba'zi mulohazalar	102
32.	N.Cho'liyeva.	Abdulla Oripov ijodida baqo mohiyati ("Jannatga yo'l" dramatik dostoni misolida)	103
33.	D.Shodmonova.	Metafora – olamni idrok etish fenomeni	105
34.	D.Bazarova.	Abdulla Oripovning so'z qo'llash mahorati (variantdosh birliklar misolida)	108
35.	N.Umarova.	Abdulla Oripov she'riyati va sharq tafakkuri uyg'unligi	110

36.	T.Kenjayev.	Abdulla Oripov she'riyatida onalar mavzusi	112
37.	F.Qiyomov.	Shoir ijodida folkloarning o'rni	115
38.	G.Xudoyorova.	Abdulla Oripov she'riyatida badiiy tafakkurning ijtimoiy vazifasi	117
39.	Z.Rajabova.	Maktabda Abdulla Oripov asarlarini o'qitishda o'quv frazeografik lug'atning o'rni	119
40.	M.Abdujabborova	Inson ruhiyatining kuychisi	120
41.	B.Siddiqov.	She'riyatda diniy-ma'rifiy masalalarning yoritilishi	124
42.	Sh.Akramov.	Jo'mardlik tuyg'usining badiiy ifodasi	126
43.	D.Ergashova.	Abdulla Oripov xalq donishmandligi ifodasi	129
44.	E.Ochilov, I.Abdurashidova.	Ijod maktabi o'quvchilarining matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishda Abdulla Oripov ijodining o'rni	131
45.	H.Hayitov.	O'zbek she'riyatida hangomalar	133
46.	J.Avezbayeva.	Abdulla Oripov she'riyatida vatanparvarlik mavzusi	134
47.	Sh.O'rino.	Abdulla Oripov va Asqar Mahkam ijodida shaxs erki, millat masalalari	136
48.	M.Rayxonova.	Abdulla Oripov she'riyatida janr dialektikasi	138
49.	M.Tilovova.	Abdulla Oripov ijodiy fenomenologiyasi	141
50.	S.Shodiyeva.	Qashqadaryoning badiiy tavsifi	144
51.	Z.To'ychiyev.	Abdulla Oripov she'rlarida vatan madhi	147
52.	D.Uralova.	Abdulla Oripov lirikasida mavzular rang-barangligi	149
53.	M.Abdumannanova.	Abdulla Oripov she'riyatida tabiat va inson uyg'unligi ifodasi	151
54.	A.Yo'ldoshev.	Poetik so'z potensiali	153
55.	M.Narziyeva.	Bahor manzaralari tadqiqi	154
56.	S.Shukurova.	Badiiy matnda ilohiy motivlar sintezi	156
57.	O.Xo'jamurodova.	Abdulla Oripov nazmiyotida gulchilikka oid so'zlarning ifoda va ma'no ko'lami	159
58.	O.Hamdamova.	Abdulla Oripov ijodida hadis poetik vosita sifatida	161
59.	M.Sharopova.	Abdulla Oripov ijodida davr va inson muammozi	164
60.	M.Sanayev.	"Ketmoqdaman" g'azali sharhi.	166
61.	U.Abdullayeva.	Abdulla Oripov ijodida tuyg'ular ifodasi	168